To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
E-mail: mirazamtohktasinov@gmail.com

SOMONIYLAR DAVRI TARIXIGA OID TARIXIY MANBALAR VA MA’LUMOTLAR

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12600321

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlati tarixi haqida ma’lumot beruvchi bir tarixiy asarlar, ularning mualliflari va shu asarlarda Somoniylar davlatining tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Tahqiqi viloyati Buxoro”, Narshaxiy, Buxoro, Samarqand, “Ilmlar kaliti”, “Mafotih ul-ulum”, “Kotib Xorazmiy”, “Al komil fit-tarix”

Islom olamining eng taraqqiy etgan va dastlabki markazlashgan davlatlardan biri hisoblangan Somoniylar davlati tarixi haqida ma’lumot beruvchi asarlar juda ko‘p. Lekin bu asarlarning deyarli ko‘plari hozirgi davrgacha saqlanib qolmagan. Saqlanib qolganlari esa deyarli bizni yurtimizda kam uchraydi. Bu asarlarni deyarli barchasi xorijiy mamlakatlar Niderlandiya, Turkiya, Misr va boshqa rivojlangan mamlakatlarning mashhur kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda. Shunday asarlardan biri hisoblangan Ibn al-Asirning “Al komil fit-tarix” tarix asaridir. Ibn al-Asirning “Al komil fit-tarix” asari Somoniylar davri tarixi haqida ma’lumot beradigan eng qimmatli asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda Somoniylar davlati va Tohiriylar davlati o‘rtasidagi siyosiy jarayonlar yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda Somoniy hukmdorlarning faoliyati va ularni Somoniylar davlati tarixida tutgan o‘rni, o‘zaro kurashlarga barham berish jarayonlari yoritib o‘tilgan. “Al komil fit-tarix” (Tarix bo‘yicha mukammal asar) 12 jilddan iborat bo‘lib, unda islom olamida insoniyat tarixining ilk davrlaridan 1230-yilgacha bo‘lgan voqealar, xususan, Xuroson va Movarounnahrning XII asr va XIII asrning 1-choragida yuz bergan tarixiy jarayonlar yilma-yil bayon qilingan. “Al komil fit-tarix asarning tanqidiy matni 1851-1876-yillarda Leyden (Niderlandiya) shahrida va 1873-yilda Misrda nashr etilgan.

Somoniylar davlati tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardan yani biri bu Abu Abdulloh Xorazmiyning “Mafotih ul-ulum” ya’ni “Ilmlar kaliti” asaridir. Ushbu asar 976- 991-yillarda yozilgan o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, bu asarda muallif o‘zi yashagan davrni X–XI asrlarda yuz bergan tarixiy jarayonlarni yoritib bergan. Bu asarda Somoniylar davridagi diniy masalalar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Jumladan kalom ilmi va islom huquqshunosligi haqida o‘zining dunyo qarashlari bilan aholi orasida shuhrat qozonadi. Shuningdek, Abu Abdulloh Xorazmiy o‘rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo‘li bilan tushuntirib bergan. Manbalarda keltirilishicha olim asli Xorazmlik bo‘lib Somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansurning (976-997) vaziri Abul Hasan Utbiy huzurida kotib lavozimida faoliyat olib borgan. Uning kotiblik davrida saroydagi nufuzi o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqqan. Shu boisdan uni “Kotib Xorazmiy” deb ham ataganlar. Uning nomi ayrim tarix manbalarda Abu Abdulloh Xorazmiy, ba’zi manbalarda esa “Kotib Xorazmiy” nomi bilan uchraydi. Uning mashhur asari hisoblangan “Mafotih ul-ulum” asarining to‘rt nusxasi mavjud deb hisoblanib kelinar edi. Shu to‘rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi. XX asrning 60-yillariga kelib ushbu asarning yana oltita nusxasi borligi aniqlandi. Hozirgi kunga kelib “Mafotih ul ulum” asarining oltita nusxasi Istanbul shahridagi kutubxonada saqlanadi.

Somoniylar sulolasining eng mashhur vakillaridan biri hisoblangan Nuh ibn Nasr (943-954) davrida eng mashhur tarixchilar-

dan biri hisoblangan Narshaxiy tomonidan yaratilgan asar ham Somoniylar davlatining tarixi haqida ma'lumot beruvchi eng mashhur manbalardan biri hisoblanadi. Abu Bakr Narshaxiyning (899- 959) "Tahqiqi viloyati Buxoro" ya'ni (Buxoro tarixi) asari Somoniylar davriga oid eng qimmatli manbadir. Chunki Narshaxiy yashagan davr va hudud tom ma'noda, Somoniylarni davriga va davlati hududiga to'gri keladi. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarda keltirilishicha Narshaxiy Buxoro shahrining Narshax qishlog'ida tug'ilgan. Somoniylar saroyida kotiblik lavozimida faoliyat yuritgan. Narshaxiy 943-944-yillarda "Tahqiqi viloyati Buxoro" nomli asarini arab tilida yozib, uni Somoniylar hukmdori Nuh ibn Nasrga (943-954) bag'ishlagan. Narshaxiyning o'g'li Abu Bakr Mansur va nevarasi hadisshunos olim Abu Rafi al-ala ibn Mansur ibn Muhammad ibn Ja'far asarni arab tilida davom ettirishib, Somoniy hukmdor Mansur ibn Nuh (997-999), ya'ni so'ngi hukmdor davrigacha asarni to'ldirib borishgan. Bu asar asosan, O'rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dining tarqalishi VIII asr va undan bevosita oldingi davrlarda yuz bergan voqealar hamda IX-XII asr asarlardagi Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumot va dalillarni o'z ichiga olgan bu asar "Buxoro tarixi"ning qimmatli bosh manbasi sifatida talqin etiladi. Narshaxiyning ushbu asari 36 bobdan iborat. Asarda Somoniylar davlatiga tegishli juda ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Narshaxiy o'z asari orqali Somoniylar davlatining dastlabki davrlari Somonxudotlarning kelib chiqishidan toki Ismoil Somoniyni rasmiy ravishda markazlashgan Somoniylar davlatiga asos solishi va Somoniylar davlatining inqirozi va parchalanib ketishi sabablari, oqibatlarini juda mohirona tarzda yoritib bergan. "Buxoro tarixi" asarida Somoniylar haqida keltirilgan barcha ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotchi olimlar tomonidan hozirgi zamon ilmiy - tarixiy adabiyotida boshqa yozma manbalar hamda ilmiy izlanishlar xususan, arxeologik, topografik, etnografik va boshqa manbalardan topilgan ma'lumotlar, bir qator tarixiy materiallar bilan solishtirib, ilmiy dalillar asosida isbotladilar.

Somoniylar davrini yoritib berishda eng muhim manbalardan yana biri sifatida Abu Ja'far Muhammad Jarir at-Tabariyning (839-923) "Tarix arrasul val muluk" asarini keltirishimiz mumkin. Abu Ja'far Muhammad Jarir at-Tabariyning (839-923) "Tarix arrasul val muluk" (Payg'ambarlar va podshohlar tarixi) asari ham juda qimmatli hisoblanadi. Islom tarixchisi va ilohiyotchisi, jarriya mazhabining asoschisi hisoblanib, uning ushbu asari Qur'on tafsiri va islom fiqhshunosligiga bag'ishlangan. Arab tarixiy adabiyotida u "musulmon tarixshunosligining otasi" sifatida birinchi o'rinni egallaydi.

At-Tabariyning "Tarix ar-rasul valmuluk" (Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi, Tarixi Tabariy nomi bilan mashhur) asarida dunyo yaratilishidan to IX asrgacha bo'lgan umuminsoniy tarix bo'lib, islom tarixshunosligining eng yirik asaridir. Bu qimmatli asar 914-yilda yakunlangan. Asarda shuningdek xalifalik hududidagi mamlakatlar, xususan, Xuroson va Movarounnahrning tarixi haqida ma'lumotlar berilgan. Asar Turkiston xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi kurashi va qo'zg'olonlaridagi Buxoro, Vardona, Samarqand va Farg'onadagi janglar, Abu Muslim harakati, Muqanna va Rofe ibn Lays qo'zg'olonlari ham qayd etib o'tilgan. Asar to'liq matn holatida saqlanib qolmagan bo'lsa ham, muallifning qisqartmasi bizgacha yetib kelgan. HojiXalfaning yozishicha, "Tarixi Tabariy" dastlab 30 ming varaqdan iborat bo'lgan. Ushbu asar 936-yili Somoniylarning donishmand va ma'rifatparvar va'ziri Bal'amiy tomonidan dariy-forsiyga tarjima qilib "Tarixi Tabariy" deb atadi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino ham Somoniylarning eng mashhur hukmdorlaridan biri Nuh ibn Mansurni (976-997) davolab, unga bag'ishlab ko'plab asarlar yozgan. Jumladan Abu Ali ibn Sino

o‘zining yaqin do‘sti Abul Husan al-Aruziyning taklifiga binoan Nuh ibn Mansurga bag‘ishlab afsonaviy quvvatlar haqida risola “Urjuza” asarini, ko‘p fanlarni o‘z ichiga qamrab olgan qomusiy asar “At-hikmat al-Aruziy” (Aruziy hikmat) asarlarini yozadi. Bundan tashqari faqih Abu Bakir al-Barqiyning taklifi bilan 20 jildli qomusiy asar asar hisoblangan “Al-Hosil valmahsul (yakun va natija) hamda 2 jildli “Kitob al-bir valism” (Sahovat va jinoyat kitobi) kabi asarlarni yozadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan asarlarda Somoniylar davlati va uning ijtimoiyiqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlarni berilgan.

Xulosa qilib aytganda yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan tarixiy manbalar va ulardagi tarixiy ma’lumotlar Somoniylar davlati tarixini o‘rganishda muhim hisoblanadi. Ushbu manbalar orqali Somoniylar davrida nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bir qatorda ilm fanga ham, xususan tarix sohasiga alohida e’tibor berilganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan asarlarni deyarlari barchasi arab tlidan bo‘lib, ushbu asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilinishi Somoniylar davlatining tarixini yanada mukammal o‘rganish uchun zamin yaratdi. Ushbu asarlardagi ma’lumotlar numizmatik va arxeologik ma’lumotlar bilan solishtirganda ma’lumotlarni deyarli bir biriga juda yaqinligi ushbu asarlardagi barcha ma’lumotlar Somoniylar davri tarixini yoritib berishda alohida o‘ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т:. Фан. 1996. Б. 120.
2. Неьматов Н. Давлати Сомониён. – Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит тарих. – Т:. Цюрих. 2005. Б. 604.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
5. Homidiy H. Daholar davrasi. –T:. O‘qituvchi. 2011. B. 352.
6. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
7. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
8. https://buxoroisharif.uz/5115/?amp=1
9. https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-xorazmiy/
10. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/320